

QPW1576

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
2026-yil 2-sentabrdagi 364-son buyrug'iga
ilova



QPW1576

QPW1576

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM MUASSASALARI
VA ILMIY TASHKILOTLARIDA OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIMGA
QO'YILADIGAN DAVLAT TA'LIM TALABLARI**

QPW1576

QPW1576

QPW1576

QPW1576

SO‘Z BOSHI

Mazkur Oliy ta’limdan keyingi ta’limga qo’yiladigan davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 34-moddasida (“34-modda. Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari”) Davlat ta’lim talablari ta’lim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi belgilangan. Mazkur Qonunning 26-moddasida (“Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari”) ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi belgilanganligi hamda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi vakolatli davlat organi sifatida ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirishi belgilanganligi asosida ishlab chiqildi.

KIRISH

Mazkur Oliy ta'limdan keyingi ta'limga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda 2019-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunining, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-4958-son hamda 2026-yil 26-maydagi "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PF-98-son Farmonlari tegishli bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, respublika oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimiga majburiy talablarni, shuningdek umumiy qabul qilingan xalqaro standartlarni hisobga olgan holda falsafa doktori (Doctor of Philosophy (keyingi o'rinlarda PhD deb ataladi) va fan doktori (Doctor of Science (keyingi o'rinlarda DSc deb ataladi) ilmiy darajalari izlanuvchilarining dissertatsiya ishi mazmuniga va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT TA’LIM TALABI

Oliy ta’limdan keyingi ta’limning davlat ta’lim talablari

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM MUASSASALARI VA ILMIY TASHKILOTLARIDA OLIY TA’LIMNAN KEYINGI TA’LIMGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TA’LIM TALABLARI

I. Qo‘llanilish sohasi

1.1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarida oliy ta’limdan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat ta’lim talablarini belgilashda qo‘llaniladi.

1.2. Davlat talablari oliy ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda OTM deb ataladi) va ilmiy tashkilotlar uchun majburiydir.

1.3. Ushbu Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

oliy ta’limdan keyingi ta’lim – doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydigan ta’lim turi;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti – ilmiy tashkilot yoki oliy ta’lim muassasalarida tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy ta’limdan keyingi ta’limni amalga oshirish tizimi;

tayanch doktorantura – falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli;

doktorantura – fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli;

mustaqil izlanuvchilik – falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli;

doktorant – ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasalariga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

mustaqil izlanuvchi – ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasalariga mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

izlanuvchi - falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlayotgan shaxs;

oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi (keyingi o‘rinlarda Yagona elektron tizim) – oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga qabul qilish, stajyor-tadqiqotchi va izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejalari bajarilishi bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish bo‘yicha hujjatlarning elektron almashinuvini tashkil etishga mo‘ljallangan axborot tizimi.

II. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarida o‘qitish shakllari va muddatlariga qo‘yiladigan umumiy talablar

2.1. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

tayanch doktorantura;

doktorantura;

mustaqil izlanuvchilik.

2.2. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarida o‘qish uch yilgacha davom etadi.

2.3. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutini tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishi uchun OTM va ilmiy tashkilotlar doimiy faoliyat ko‘rsatadigan muvofiqlashtiruvchi Kollegial organga (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnikaviy kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqa shakllarda) (keyingi o‘rinlarda Kollegial organ deb ataladi) ega bo‘lishi lozim.

2.4. Tayanch doktoranturaga va doktoranturaga qabul qilish OTM yoki ilmiy tashkilotlar tashkil etadigan qabul komissiyalar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov asosida amalga oshiriladi.

Tayanch doktoranturada o‘qishga talabgorlarni tanlab olish kirish imtihonlari natijalariga ko‘ra, doktoranturaga esa suhbat natijalariga ko‘ra amalga oshiriladi. Mustaqil izlanuvchilik institutiga rasmiylashtirish suhbat natijalariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlariga oid ixtisosliklar bo‘yicha talabgorlarni tayanch doktoranturaga qabul qilish kirish imtihoni o‘tkazilmasdan, ilmiy-tadqiqot ishi taqdimoti natijalari asosida amalga oshiriladi.

Ilmiy-tadqiqot ishi taqdimotiga qo‘yiladigan talablar tegishli soha va ixtisoslikning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda har bir oliy ta’lim muassasasi va ilmiy tashkilot tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi hamda mazkur tashkilotning kollegial organi qarori bilan tasdiqlanadi.

2.5. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni qabul qilish qonun hujjatlariga va/yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

III. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga kiruvchi talabgorlarga qo'yiladigan talablar

3.1. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayanch doktoranturaga kiruvchi yoki mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtiriluvchi shaxslar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

magistr darajasiga yoxud klinik ordinaturani tugatgan (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) ega bo'lish;

falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislariga ega bo'lish;

tibbiyot fanlari bo'yicha mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirishda ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining Kollegial organi qarori bilan talabgordan klinik ordinaturani (magistraturani) tugatgandan so'ng ilmiy, ilmiy-pedagogik yoki amaliy ish stajiga (ikki yildan to'rt yilgacha bo'lgan muddatda) ega bo'lishi talab etilishi mumkin.

3.2. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktoranturaga kiruvchi yoki mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtiriluvchi shaxslar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lish.

3.3. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga qabul qilinayotgan magistr yoxud klinik ordinaturaga (tibbiyot fanlari uchun) yoki mutaxassislik dasturlari bo'yicha (1997-yilgacha) olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega bo'lish, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda ilmiy darajaga ega bo'lganlar mutaxassisligi oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosligi tegishli bo'lgan fan sohasiga muvofiq bo'lishi shart.

Fan sohalari mos kelmaganda yoki oliy ta'limdan keyingi ta'limda fanning turdosh sohalari bo'yicha olish rejalashtirilganda talabgorlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda OAK deb ataladi) belgilagan fanlar bo'yicha qo'shimcha imtihonlar topshirishi lozim.

IV. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarida o'qishga qo'yiladigan talablar

4.1. Stajyor-tadqiqotchi va doktorant ilmiy rahbar va konsultant (konsultant tayinlangan holatlarda) bilan birgalikda yakka tartibdagi rejasini ishlab chiqadi. Yakka tartibdagi reja stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktoranturaga yoki doktoranturaga o'qishga qabul qilingandan keyin bir oyda Kollegial organ qarori bilan tasdiqlanadi va Yagona elektron tizimga yuklanadi.

4.2. Ilmiy rahbar doktorant uchun ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur ishlab chiqadi. Nazariy-metodologik dastur tayanch doktoranturaga o'qishga qabul qilingandan boshlab bir oy muddat ichida Kollegial organ tomonidan tasdiqlanadi.

4.3. Nazariy-metodologik dastur metodologiyaning umumiy konsepsiyasi va masalalarini, mazkur ixtisoslik bo'yicha nazariy asoslarni va ilmiy tadqiqot usullarini o'z ichiga oladi. Nazariy-metodologik dastur tayanch doktorant tomonidan o'qishning birinchi yili mobaynida ilmiy rahbarning yordamida o'zlashtiriladi.

4.4. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar tomonidan tayanch doktoranturaga qabul qilingan doktorantlar uchun ta'limning birinchi yilida sohaviy maxsus fanlar, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va akademik yozish, statistika hamda ma'lumotlar tahlili bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi.

Mazkur fanlar bo'yicha fan dasturlari va o'quv rejalari tegishli fan sohasining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, umumiy hajmi 4 kredit (120 soat) dan oshmagan doirada har bir oliy ta'lim muassasasi va ilmiy tashkilotning kollegial organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv mashg'ulotlarini o'tkazgan professor-o'qituvchilarga belgilangan tartibda soatbay haq to'lanadi.

Doktorantlarning mazkur o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etishi va fanlarni o'zlashtirishi ularning yakka tartibdagi ish rejasiga kiritiladi. Tegishli fanlarni belgilangan tartibda o'zlashtirgan doktorant yakka tartibdagi ish rejasining ushbu fanlarga oid bandlarini bajargan hisoblanadi.

4.5. Ilmiy unvoni bo'lgan fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) bir vaqtning o'zida ikkitadan ko'p bo'lmagan izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilishi mumkin. So'nggi uch yilda izlanuvchilari o'z vaqtida himoya qilgan ilmiy rahbarlarga ta'lim yoki ilmiy tashkilotning kollegial organi xulosasi asosida uchtdan ko'p bo'lmagan izlanuvchilar biriktirilishi mumkin.

4.6. Xorijiy fuqarolarga yoki fuqaroligi bo'lmagan izlanuvchilarga o'rnatilgan me'yordan ortiq ilmiy rahbar yoki konsultantlar tayinlanishi mumkin.

4.7. Fan doktori ilmiy rahbar yoki ilmiy konsultant sifatida bir vaqtning o'zida ko'pi bilan to'rt nafar izlanuvchiga biriktirilishi mumkin. So'nggi uch yil davomida ilmiy rahbarligi yoki ilmiy konsultantligidagi izlanuvchilarning dissertatsiya ishlarini belgilangan muddatlarda muvaffaqiyatli himoya qilishini ta'minlagan ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlarga tegishli oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy tashkilotning kollegial organi xulosasi asosida bir vaqtning o'zida ko'pi bilan olti nafar izlanuvchi biriktirilishi mumkin.

2027-yil uchun qabuldan boshlab tayanch doktoranturaga qabul qilingan stajyor-tadqiqotchi hamda dissertatsiya ishini belgilangan muddatda himoya qilgan doktorantning ilmiy rahbariga ilmiy rahbarlik faoliyati uchun bir martalik to'lov amalga oshiriladi.

Bunda ilmiy rahbarning Scopus yoki Web of Science ma'lumotlar bazalaridagi Xirsh indeksi ko'rsatkichi 0 dan yuqori va 5 dan kam bo'lgan taqdirda, unga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 40 baravarigacha, Xirsh indeksi ko'rsatkichi 5 va undan yuqori bo'lgan taqdirda esa mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 80 baravarigacha miqdorda bir martalik to'lov to'lanadi.

Bir martalik to'lov miqdori ilmiy rahbarning mazkur bandda belgilangan mezonlarga muvofiqligi inobatga olingan holda belgilanadi va qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat budjetidan amalga oshiriladi.

V. Dissertatsiyaga qo'yiladigan talablar

5.1. Dissertatsiyani rasmiylashtirish va uni himoya qilish izlanuvchining xohishiga ko'ra o'zbek, rus, qoraqalpoq va ingliz tillaridan biri yoki OAK bilan kelishilgan holda boshqa tilda amalga oshiriladi.

5.2. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya bilimlarning tegishli tarmog'ida muhim ahamiyatga ega masalaning yangi yechimidan iborat yoki dolzarb ilmiy masalaning yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan tugallangan shakldagi ilmiy ish bo'lishi lozim.

5.3. Fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya tugallangan ilmiy ish bo'lishi va unda:

muhim ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy yoki amaliy muammolar yechimi keltirilgan;
yoki tegishli fan sohasining istiqbolli yo'nalishini rivojlantirish uchun yirik yutuq sifatida baholanadigan yangi nazariy qoidalar kompleksi ishlab chiqilgan;
yoki joriy etilishi fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy soha yoki iqtisodiyot tarmog'ining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadigan nazariy-metodologik va uslubiy asoslar, ilmiy asoslangan texnik, iqtisodiy yoki texnologik yechimlar ishlab chiqilgan (takomillashtirilgan) bo'lishi lozim.

5.4. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatini rasmiylashtirish qoidalari OAK tomonidan belgilanadi.

VI. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga qo'yiladigan umumiy malaka talablari

6.1. Quyidagilar oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini belgilaydigan asosiy talablar hisoblanadi:

a) falsafa doktorlari uchun (PhD):

umumilmiy va aniq tarmoq tadqiqotlarining metodologiyasini egallagani, muammoni malakali tarzda aniqlashi va asoslay olishi, ilmiy ma'lumotlar

va materiallarni maqsadli tarzda izlay olishi, tahlil qilishi, tizimlashtirishi va umumlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

tadqiqot natijalariga asoslanib muammo mazmunini bayon qila bilishni, ilmiy xulosalar va tavsiyalarni aniq va lo'nda ifodalay olishi;

ilmiy natijalarni amaliyotda joriy etish uchun taqdim qila olishi;

b) fan doktorlari uchun (DSc):

ixtisoslik bo'yicha chuqur fundamental bilimlarga ega bo'lishi;

fundamental tadqiqotlarni yuqori saviyada bajara olishi va muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ilmiy-amaliy muammolarni yecha olishi;

ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etishi.